SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 24-oktabr | 542-7-100-Q/24 | Payariq tumani hokimligi

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari 2025-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 14-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998 y, 5-6-son, 97-modda, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunining 25-moddasi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil 29,30-son, 277-modda) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida tuman hududida joylashgan korxona, tashkilot va muassasalarda ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash yuzasidan takliflarni inobatga olib;

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida"gi Qonunining 17-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilishi lozim bo‘lgan tumandagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qayd qilingan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar quyidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalari uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yishni ta’minlasin.

O‘n to‘rt yoshgacha bolalari bo‘lgan va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 18 kishi;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar;

“Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari- 116 kishi;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar -2 kishi;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun -8 kishi;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun -5 kishi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar -1 kishi;

qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar- 27 kishi:

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar-3 kishi.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar ish bilan ta’minlash uchun 2024-yil yakunlanishidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun 2025-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo‘yish) to‘g‘risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo‘yicha ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo‘yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarini ko‘rsatib o‘tilgan miqdorini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida"gi Nizomiga (keyingi o‘rinlarda Nizom deb ataladi) muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda zaxiralab qo‘yilishini (ajratilishini yoki band etib qo‘yilishini) hamda ish joylari sanitariya, gigiyena normalariga va xodim o‘z majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasinlar.

5. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

6. Ushbu qarorda belgilab qo‘yilgan toifalarga mansub shaxslarni ortig‘i bilan qabul qilgan korxona, tashkilot va muassasalarga Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va Mehnat munosabatlari vazirining O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan

o‘tgan (31.05.2019 y. № 3163) 2019-yilning 10-maydagi "O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida"gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga asosan subsidiya ajratilishini ta’minlasin.

7. Nizom talabiga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini tuman hokimi tomonidan belgilangan miqdoridan ortiqcha tashkil etgan tashkilotlar ushbu o‘rinlarni tashkil etishga sarflangan mablag‘larining bir qismini Bo‘lim bilan tuzilgan shartnoma asosida Aholi bandligiga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

8. Bo‘lim boshlig‘i v.v.b (U.Otaqulov) besh kun muddatda mazkur qarorni tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlasin.

9. Tuman hokimining 2023-yil 24-oktabrdagi "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida"gi 229-7-100-Q/23-sonli qarori 2024-yilning 31 dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Sh.Eshonqulov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **DJABBOROV ISROIL.ISMOILOVICH**

Payariq tuman hokimining
2024-yil 24-oktabrdagi
542-7-100-Q/24-son qaroriga
1-ilova

№	Ish o‘rinlarini zahiralash belgilangan korxona va tashkilotlar nomi	Korxona va tashkilotlar STIR (STIR aniq bo‘lishi shart)	Joylashgan manzili	Telefon raqamlari	Shtat jadvali bo‘yicha hodimlar soni	Jami zaxiralanishi belgilangan ish o‘rinlari soni	Shundan								
							14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar	Oilaviy (maishiy zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar
1	1-maktab	206887968	Go‘zal MFY	94-470-97-97	62	4	1	1		1				1	
2	2-maktab	206905019	Darvishiq MFY	94-723-37-31	86	6	1	2		1	1			1	
3	3-maktab	203495065	Qirqovul MFY	99-035-44-55	95	7	1	3		1	1			1	
4	14-maktab	206895824	Juvozxona MFY	91-555-47-97	83	6	1	3		1				1	
5	27-maktab	206890277	Boshqo‘rg‘on MFY	94-185-57-64	52	4		2		1				1	
6	28-maktab	206894667	Boshcho‘rosh MFY	88-933-03-60	50	4		2		1				1	
7	32-maktab	206895791	Ko‘lto‘sin MFY	97-921-12-71	30	2		1		1					
8	36-maktab	206891924	G‘allakor MFY	99-960-49-17	50	4	1	2		1					
9	42-maktab	206891892	Juvozxona MFY	97-910-92-80	50	4		2		1				1	
10	45-maktab	206891860	Juvozxona MFY	94-622-65-90	41	3		1		1				1	

11	49-maktab	206887588	Do‘stlik MFY	91-316-44-04	31	2		1		1				
12	51-maktab	206891884	Yangiobod MFY	97-896-10-80	54	3		3						
13	54-maktab	206890300	Birlashuv MFY	90-195-57-64	30	2		1		1				
14	63-maktab	206895855	O‘ymovut MFY	93-335-33-54	43	3		1		1				1
15	66-maktab	206891774	Yangi hayot MFY	93-553-55-13	51	4	1	2		1				
16	67-maktab	206887549	Aliobod MFY	94-189-04-69	54	4		2		1				1
17	69-maktab	206891806	Polvonariq MFY	93-999-68-95	50	4		2		1	1			
18	70-maktab	206887500	Ko‘ktepa MFY	99-776-12-17	43	3	1	1		1				
19	73-maktab	206890324	Ernazarqo‘rg‘on MFY	99-688-99-24	57	4		2		1				1
20	89-maktab	206895769	Zarafshon MFY	99-328-67-21	56	4	1	1		1				1
21	90-maktab	206887611	Bobur MFY	99-084-88-72	51	4		2		1				1
22	97-maktab	206891932	Fitrat MFY	94-286-86-01	42	3		2		1				
23	103-maktab	310928792	Fidokor MFY	93-353-33-52	30	2		1		1				
24	1-DMTT	207003863	Alisher Navoiy MFY	93-035-82-96	24	2		1		1				
25	2-DMTT	207003870	Faravon MFY	93-721-72-21	41	3	1	1		1				
26	11-DMTT	207275724	Ko‘paki MFY	97-926-16-22	42	3		1		1				1
27	13-DMTT	207033494	Bahor MFY	93-994-06-63	42	3		2		1				
28	16-DMTT	207072344	Birlashuv MFY	97-895-05-04	39	3		1		1				1
29	19-DMTT	207073588	Gulzor MFY	94-487-07-64	39	3		1		1				1
30	20-DMTT	207003887	Qumchuq MFY	93-348-81-48	31	2				1				1
31	23-DMTT	207049046	Ilg‘or MFY	93-964-04-72	37	3		2		1				
32	39-DMTT	207049085	Ernazarqo‘rg‘on MFY	97-391-62-67	32	2		1		1				
33	40-DMTT	207033519	Sarbozor MFY	93-853-32-22	50	4	1	1		1				1
34	44-DMTT	207049054	Oqqo‘rg‘on MFY	99-772-43-44	42	3	1			1				1
35	45-DMTT	306490036	Javshar ota MFY	93-680-04-51	30	2		1		1				
36	46-DMTT	307762510	Kattasaydov MFY	93-038-34-86	26	2		1		1				

37	49-DMTT	311354756	Sho‘rtepa MFY	97-910-60-75	21	1				1					
38	51-DMTT	310113787	Beshqo‘rg‘on MFY	94-287-55-85	20	1				1					
39	PAYARIK DAVLAT SANITARIЯ ЭPI-DEMOLOGIЯ NAZORATI MARKAZI	200760918	Bunyodkor MFY	33-359-80-80	96	7	1	1	1	2	1	1			
40	BARKAMOL AVLOD BOLALAR MARKAZI	207122486	Alisher Navoiy MFY	94-474-78-19	53	4	1	2		1					
41	"PAYARIQ TUMAN SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI	207264104	Bunyodkor MFY	66-672-14-05	52	4		2						2	
42	Samarqand viloyat Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi Payariq tuman 17-son bolalar musiqa va san'at maktabi	206986955	Go‘zal MFY	94-475-10-30	53	4	1	1		1				1	
43	Samarqand viloyat Madaniyat boshqarmasi tasarrufidagi Payariq tuman 28-son bolalar musiqa va san'at maktabi	207234283	Qumchuq MFY	55-705-90-18	55	4		1		1				2	
44	1-SONLI BOLALAR VA USMIRLAR SPORT MAKTABI	207048965	Qumchuq MFY	66-672-12-54	67	5		3						2	

45	2-SONLI BOLALAR VA USMIRLAR SPORT MAKTABI	207055593	Xo‘ja Ismoil MFY	99-337-34-37	63	4	1	2						1	
46	Payariq tuman tibbiyot birlashmasi	200760814	Go‘zal MFY	66-425-21-43	2475	15	1	11	1		1				1
47	"SHOHIMARDON ASQAROV" OILAVIY KORXONA	305736504	Go‘zal MFY	97-615-59-80	66	5	1	2		1					1
48	"SAMARQAND COTTON CLUSTER" mas'uliyati cheklangan jamiyati	305933211	Dehqonobod MFY	97-612-28-90	75	5		2		2					1

2025-yilda Payariq tumanida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida
MA'LUMOT

№	Hudud nomi	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	Shundan								
				14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar; “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar	Oilaviy (maishiy zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar
A	*B*	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*
1	**Payariq tuman**	**48**	**180**	**17**	**80**	**2**	**45**	**5**	**1**		**27**	**3**